

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| amaliy tajribalar.....                                                                                                                                                                   | 82  |
| <b>D.A.Djurakulova</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar.....                                                                             | 87  |
| <b>A.R.Dilbarjonov</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli.....                                                          | 92  |
| <b>N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova</b>                                                                                                                                                     |     |
| Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....                                                                                                           | 95  |
| <b>M.Sh.Dehqonova</b>                                                                                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish.....                                                                       | 99  |
| <b>B.Q.Qurbonova</b>                                                                                                                                                                     |     |
| Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari.....                                                                                        | 102 |
| <b>M.I.Madraximova</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish.....                                                              | 106 |
| <b>Z.Q.Abdullayeva</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.....                                                                            | 110 |
| <b>O.A.Васильченко</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении.....                                                                                                           | 114 |
| <b>S.R.Shermatova</b>                                                                                                                                                                    |     |
| Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.....                                          | 120 |
| <b>M.Nasritdinova</b>                                                                                                                                                                    |     |
| Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish..... | 124 |
| <b>D.Sh.Jo'raboyeva</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....                                                                                             | 129 |
| <b>U.I.Obidjanov</b>                                                                                                                                                                     |     |
| Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari.....                                                                                          | 134 |
| <b>J.M.Otajonov</b>                                                                                                                                                                      |     |
| Рефлексия как философский феномен связи личности и общества.....                                                                                                                         | 139 |
| <b>M.A.Nurmatova</b>                                                                                                                                                                     |     |
| Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari.....                                                                                                   | 146 |
| <b>S.B.Tangirqulov</b>                                                                                                                                                                   |     |
| Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....                                | 151 |
| <b>Z.N.Asqarova</b>                                                                                                                                                                      |     |
| Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish.....                                                                                         | 156 |
| <b>N.Sh.Rustamova</b>                                                                                                                                                                    |     |
| Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich).....                                             | 160 |



## UNIVERSAL METAKOMPETENTLIKNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УНИВЕРСАЛЬНОЙ МЕТАКОМПЕТЕНТНОСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕЕ РАЗВИТИЯ

### UNIVERSAL METACOMPETENCE OF PEDAGOGICAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT OPPORTUNITIES

**Nurmatova Maftuna Ashurali qizi**   
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0009-0001-4487-3568>

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada, jamiyatda yoshlarning qobiliyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan ajdodlar ilmiy merosini o'rganish, milliy qadriyatlarga hurmatini kuchaytirish asosida zamonaviy tarbiyaviy mexanizmlarni yaratish, yoshlar ma'naviy madaniyatidagi kognitivlik, siyosat, axloq tadrijiyligi va shaxs, jamiyat, davlatning obyektiv imkoniyatlarini pedagogik jihatlarini ochib berish dolzarb vazifalari ifodalangan. Universal metakompetentlikni rivojlantirish va tajriba o'rtirish jarayonida ta'lim oluvchi muayyan fan sohasida turli xulq modellarini topish va sinab ko'rish, ular ichidan uning tarziga, talablariga, didiga va qadriyatlariga eng moslarini tanlash imkoniyatlari va ilmiy yo'nalishlari yoritilgan.

#### Аннотация

В данной статье изложены актуальные задачи изучения научного наследия предков, служащего развитию способностей молодежи в обществе, создания современных воспитательных механизмов на основе укрепления уважения к национальным ценностям, раскрытия когнитивных, политических, этических и педагогических аспектов объективных возможностей личности, общества и государства в духовной культуре молодежи. В процессе развития универсальной мета компетентности и приобретения опыта освещены возможности и научные направления поиска и проверки обучающимся различных моделей поведения в определенной предметной области, выбора из них наиболее подходящих его стилю, требованиям, вкусу и ценностям.

#### Abstract

This article addresses the urgent tasks of studying the scientific heritage of our ancestors, which serves to enhance the abilities of young people in society, creating modern educational mechanisms based on strengthening respect for national values, and revealing the cognitive, political, and ethical evolution in the spiritual culture of young people, as well as the pedagogical aspects of the objective capabilities of the individual, society, and the state. In the process of developing universal metacompetence and gaining experience, the possibilities and scientific directions of finding and testing various behavioral models in a particular field of science by the student, choosing the most suitable ones for his style, requirements, taste, and values are highlighted.

**Kalit so'zlar:** kasbiy bilim, ko'nikmalar, milliy metodika, intellekt salohiyat, aqliy qobiliyat, uzluksiz ta'lim, ta'lim, ilm-fan.

**Ключевые слова:** профессиональные знания, навыки, национальная методика, интеллектуальный потенциал, умственные способности, непрерывное образование, образование, наука.

**Key words:** professional knowledge, skills, national methodology, intellectual potential, mental abilities, continuous education, education, science.

#### KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inson faoliyatining barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishish, o'zini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tez o'zgarayotgan ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish qobiliyati muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan **universal metakompetentlik** tushunchasi ta'lim jarayonining markaziy kategoriyasiga aylanmoqda. Mazkur kompetentlik shaxsning bilim, ko'nikma va qadriyatlarni kompleks tarzda qo'llay olishini, o'z faoliyatini refleksiya qilishini hamda doimiy o'rganishga tayyor bo'lishini ifodalaydi. Bu sifatlar majmuasi sifatida "metakompetentlik" tushunchasida mujassam. Bugungi kunda, pedagogika sohasida ko'plab ilmiy yondashuvlar va

modellashuvlar mavjud bo'lib, ularni chuqur o'rganish va milliy metodikaga integratsiyalash dolzarb vazifaga aylangan. Bunday sharoitda rivojlangan davlatlarning pedagogika ta'limiga doir tajribalarini keng tatbiq etish asosida bo'lajak pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois, pedagogika sohasida universal metakompetentlikni rivojlantirish asosida pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish va uni amaliyotga samarali tarzda joriy etishga qaratilgan pedagogik tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida ham "o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish"[1.] ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu asosga ko'ra, pedagog xodimlarni tayyorlashga yangicha yondashuvlarni qo'llash, kompetentsiyaviy yondashuvlarni tatbiq etish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida bo'lajak pedagoglarining universal metakompetentligini rivojlantirish asosida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimini modernizatsiyalashni talab etadi. Shu bois, pedagog kadrlarni tayyorlashda kompetentsiyaviy yondashuvni tatbiq etishda xalqaro standartlarini bo'lajak kadrlarga o'rgatishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va shakllantirish vazifalari ustuvorlik ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonning rivojlanish bosqichida mamlakatimizning turli sohalari hamda yangilanish jarayonlarida intellekti, salohiyati, aqliy qobiliyatlari, ijodkorligi yuqori bo'lgan, bilimli, axloqli, madaniyatli, ma'naviyati yuksak yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash va voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim darajasi, unda berilayotgan bilimlar saviyasi va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali yangi dunyoqarashni shakllantirish jarayonlarini hisobga olish zarur bo'ladi. Shu ma'noda, mutafakkir Abdurauf Fitratning "Bu dunyo-kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jism-u tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir"[2,55.] deya e'tirof etadi. Zamonaviy jamiyatlardagi yoshlar intellektual salohiyat samaradorligini quyidagi mezonlar bo'yicha baholash mumkin.

Birinchidan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati (ilmiy nashrlar, grantlar, akademik harakatchanlik, tanlovlarda va konferentsiyalardagi faolligi).

Ikkinchidan, mehnat bozorida bitiruvchilarga talab (ish bilan ta'minlangan bitiruvchilar soni).

Uchinchidan esa, ish beruvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki (tashkilotlar buyurtmasi bo'yicha bitiruv malakaviy ishlarni bajarish, nazariy va amaliyot uyg'unligini ta'minlash) dan iborat bo'ladi. Professor N.Muslimov o'zining doktorlik dissertatsiyasida mutaxassislarining kasbiy faoliyatini tashkil etish borasidagi fikrlarni berib, u quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Shaxsda kasbiy sifatning mavjudligi uning mutaxassis sifatida shakllanganlik ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayoni ma'lum bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi"[3,133.]. Yoshlarning bilim darajasi o'sishi, intellektual salohiyatning shakllanishi va rivojlanishi, zamonaviy mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikning kafolati hisoblanadi. Uzlaksiz ta'lim va kasbiy rivojlanish yoshlarning intellektual qobiliyatlari va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, bu esa kasbiy o'sish va turmush darajasini ko'tarish istiqbollari oshiradi.

Pedagog o'qituvchilarda universal metakompetentlikni rivojlantirishning eng maqbul pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilar tanlandi:

- zamonaviy axborot-ta'lim muhitining mavjudligi;
- metakompetentlikni rivojlantirishining kasbiy yo'nalishini ta'minlash;
- mutaxassislik fanlarini shaxsni barqaror rivojlantirishga yo'naltirish;
- o'qituvchining talabalar bilan muloqot jarayonida metakompetentlikning barcha komponentlarini faollashtirish;
- ta'limning shaxsga yo'naltirilgan konstruktiv texnologiyalaridan o'zaro bog'lanishning turli shakllarini qo'llab foydalaniladi.

#### ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Pedagogika fanlari nomzodi S.Bozorova "Oliy ta'limda kasbiy- yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi" monografiyasida kasbiy-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ta'lim oluvchilarda ularning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun muhim shaxsiy sifatlarini, shuningdek, vazifasi bo'yicha funksional majburiyatlarni bajarishni ta'minlaydigan ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan texnologiya tushuniladi"[4,70.].

## PEDAGOGIKA

Jamiyatda yoshlarning qobiliyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan ajdodlar ilmiy merosini o'rganish, milliy qadriyatlarga hurmatini kuchaytirish asosida zamonaviy tarbiyaviy mexanizmlarni yaratish, yoshlar ma'naviy madaniyatidagi kognitivlik, siyosat, axloq tadrijiyligi va shaxs, jamiyat, davlatning obyektiv imkoniyatlarini pedagogik jihatlarini ochib berish dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Metakompetentsiyani rivojlantirish tajriba orttirish jarayonida ta'lim oluvchi "muayyan fan sohasida turli xulq modellarini topish va sinab ko'rish, ular ichidan uning tarziga, talablariga, didiga va qadriyatlariga eng moslarini tanlash" orqali mukammallashib boradi. Shu tariqa, kompetentsiya – bu insonning shaxsiy xususiyati, individning turli vazifalarni bajarishga tayyorligi bo'lib, faoliyat davomida shakllanadi va shu faoliyatga bo'lgan qadriyat-mazmun munosabatini shakllantiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining metakompetentsiyasini rivojlanganlik darajasini aniqlashda, baholash vositalari fondini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining metakompetentsiyasini rivojlanganlik darajasini baholashning diagnostik vositalarini ishlab chiqish metodikasini K.F.Gabdraxmanova[5,15.], kompetentsiyalarni baholash uchun baholash vositalari tipologiyasi L.M.Boltunova, I.N.Emelyanovalar[6,84,87.], ko'p darajali ta'lim dasturlarini amalga oshirishda baholash vositalarini loyihalashga oid metodik ko'rsatmalar bo'yicha V.A.Bogoslovskiy, Ye.V.Karavaeva, E.N.Kovtun va boshqalar[7,148.], texnika OTMlari talabalarining o'z o'zini yuksaltiruvchi kompetentsiyalarini kvalimetrik baholash texnologiyalari vositasida loyihalash G.R.Garafutdinovalar[8,57,59.] tomonidan tadqiq etilgan.

**TAXLIL VA NATIJALAR**

Pedagoglarning universal metakompetentligi rivojlantirishda pedagogning o'z bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlarini tahlil qilish, yangi bilimlarni ishlab chiqish, tanqidiy fikrlash, o'zini anglash, hayotdagi turli vaziyatlarga moslashish va ularga samarali yondashishda o'z samarasini beradi. Metakompetentlik pedagogning nafaqat kasbiga bo'lgan munosabati, balki pedagogik muammolarni hal qilish bilan birga, bilim va qobiliyatlarini anglash va ularni samarali ravishda boshqarish, o'z qobiliyatlarini turli vaziyatlarda qanday qo'llashni tushunish va rivojlantirishdagi yo'l-usullariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yangi muammolarga moslashish hamda yondashuv va strategiyalarini qayta ko'rib chiqish va kuchli hamda zaif tomonlarni hisobga olib, bilim va qobiliyatlarini anglash, o'zini tanish va rivojlantirish, takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Bu borada yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asl maqsadi sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish mumkin:

- yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilish;
- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi sa'y-harakati, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish;
- intellektual zaxiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish;
- intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;
- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishdan iborat bo'ladi.

Universal metakompetentlik insonning ichki imkoniyatlari va chegaralarini bilish, o'zining kuchli tomonlarini aniqlash va zaif tomonlarini yaxshilashga yordam beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (person-oriented education) sharoitida bo'lajak pedagoglarda metakompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirishda, ta'limning pedagogik modelini takomillashtirish, talabalarda jamiyatni va ijtimoiy hodisalarni o'rganishga qiziqishini orttirish jarayonida integrativ yondashuvning o'ziga xos jihatlarini aniqlashtirish, ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, bugungi kunda eng muhim kerakli bo'lgan omillardan biri hisoblanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda metakompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga yo'nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bu borada DTS me'yorlari va OTM talabalarining asosli jamlanmasi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchidan; mintaq va OTMning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda milliy talablarga aniqlik kiritish;

Ikkinchidan; o'zlashtirilayotgan yo'nalish yoki tayyorlash dasturiga muvofiq, kompetentsiyalarga berilgan ta'riflarga aniqlik kiritish;

Uchinchidan; kompetentsiyalarga berilgan ta'riflarni tushuntirish yoki soddalashtirish;

To'rtinchidan; kompetentsiyalarni darajalar, ko'rsatkichlar va deskriptlar bo'yicha tartiblashtirish.

O'quv dasturini o'zlashtirish bo'yicha rejalashtirilgan natijalar –bu ta'lim oluvchilarning ta'lim standartida belgilangan kompetentsiyalariga qo'shimcha ravishda, ta'lim dasturining yo'nalishi (profili)ni hisobga olgan holda, tashkilot tomonidan belgilangan kompetentsiyalar (bunday kompetentsiyalar belgilangan taqdirda) sifatini, uning ishlab chiqarish qobiliyati tajriba, bilim, ko'nikma, malakalar sinergiyasi shaklida noyob nusxa ko'chirish qiyin bo'lgan resurs sifatida namoyon bo'lishi[9,25.] inobatga olingan.

Har bir fan (modul) bo'yicha o'qishning rejalashtirilgan natijalari bu bilim, ko'nikma, malaka(lar) va (yoki) faoliyat tajribasi bo'lib, kompetentsiyalar shakllanishi bosqichlarini tavsiflaydi va pedagogik ta'lim sohasi o'quv dasturini o'zlashtirish bo'yicha rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

O'qish natijalari – bu kompetentsiya: bilim, amaliy malaka, faoliyat natijalarining kutilayotgan va o'lanayotgan "tarkibiy qismlari" bo'lib, ta'lim oluvchi u yoki bu modulni o'zlashtirganidan so'ng o'zlashtirishi va o'zlashtirganini namoyish eta bilishi lozim.

O'qish bosqichi deganda, ta'lim jarayonining ma'lum qismini tushunamiz, o'qish jarayoni ayrim bosqichlarga bo'linadi. Masalan, har bir bosqich so'ngida ma'lum natijalarga erishiladi va bu natijalar kompetentsiya shakllanganligi darajasini belgilaydi. O'qish natijalarining kompetentsiyalar shakllanganligi darajasiga mos kelishi taklif etilayotgan tizim yordamida belgilanadi.

#### MUXOKAMA

Universal metakompetentlikning rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, pedagogning professional faoliyatida juda muhim va ahamiyatli, chunki u pedagogning amaliy faoliyatida yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu ko'nikmalar pedagogning har bir faoliyatida, dars berish, o'quvchilarga ta'lim berishdan tortib, jamoa bilan ishlash va o'z ishini tahlil qilishga qadar qo'llanadi.

Pedagogning professional faoliyatiga quyidagi jihatlar orqali faoliyatiga ta'sir qiladi:

**-o'zini-o'zi rivojlantirish va o'qitish bo'lib bunda,** pedagoglar o'z bilimlarini yangilab turishlari, pedagogik texnologiyalar va metodlarni o'rganishlari kerak bo'ladi. Metakompetentlik bu jarayonda o'qituvchining o'z-o'zini tahlil qilish va o'zining o'quv jarayonidagi rolini anglashini ta'minlaydi;

**-kreativlik va innovatsiyalar orqali o'qituvchi** kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish va o'quvchilarga innovatsion ta'lim usullarini o'rgatish uchun metakompetentlikka ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bu o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishda va o'quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashishda yordam beradi;

**-muammolarni hal qilish qobiliyati tufayli,** o'qituvchining metakompetentligi ularni turli pedagogik muammolarni hal qilishda yordam beradi, masalan, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish yoki o'quv jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarni bartaraf etish;

**-pedagogik refleksiyada** pedagog o'z faoliyatini tahlil qilish, yutuqlarini baholash va kamchiliklarini aniqlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida o'zgaruvchan va murakkab ta'lim muhitida samarali ishlashga yordam beradi;

**-hamkorlik va jamoada ishlash jarayonida,** metakompetentlik o'qituvchiga o'zaro aloqalarda muvaffaqiyatli bo'lish, jamoadagi a'zolar bilan samarali ishlash va umumiy maqsadga erishish imkonini beradi. Pedagogning professional faoliyati orqali universal metakompetentlikni rivojlantirish uchun strategiyalarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Masalan, **ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish.** Bu jarayonda, o'qituvchi o'zining o'quvchilari bilan alohida ishlashga, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Bo'lajak pedagog, **pedagogik va psixologik bilimlarni o'rganish tufayli,** bo'lajak o'qituvchilar uchun o'z-o'zini rivojlantirish va pedagogik bilimlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. **Yangi texnologiyalardan foydalanishda,** zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritish, o'quvchilarga motivatsiya yaratish va bilimlarni samarali tarzda etkazish uchun metakompetentlikni rivojlantirish zarurligini inobatga olish kerak. Shu tarzda, pedagogning metakompetentligi uning

## PEDAGOGIKA

professional rivojlanishida va o'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Pedagogning professional faoliyati orqali universal metakompetentlikni rivojlantirishda, ushbu strategiyalar, bo'lajak o'qituvchining ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarga samarali bilim berish va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik refleksiya va o'zini-o'zi tahlil qilish. Pedagoglar o'z faoliyatlarini muntazam ravishda tahlil qilib borishlari kerak. O'z faoliyatini refleksiya qilish, bo'lajak pedagog o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Amalga oshirish orqali, har darsdan keyin bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyatini baholab, o'quvchilarning natijalarini va dars jarayonidagi samaradorlikni tahlil qilishi mumkin. Reflektiv jurnal yoki blog yuritish yordamida o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish ham foydali bo'ladi. Innovatsion pedagogik metodlardan foydalanishda, metakompetentlikni rivojlantirish uchun bo'lajak o'qituvchilar yangi pedagogik metodlardan foydalanishi kerak, masalan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, loyiha asosidagi ta'lim va boshqalar. Amalga oshirish jarayonida bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarga innovatsion texnologiyalarni, misol uchun, interaktiv doskalar, onlayn platformalar, ta'lim ilovalari va boshqa resurslarni ishlatish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin bo'ladi.

Pedagog bilan shaxsiy munosabatlarni rivojlantirishda o'quvchilar bilan individual aloqalar o'rnatishlari, ularning o'ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini tushunishlari kerak. Bu bo'lajak pedagogga har bir o'quvchining o'zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olib, ta'limni moslashtirish imkonini beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hamkorlikda ishlash va jamoa o'qitishni rivojlantirish uchun, pedagoglar boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashlari, o'zaro tajriba almashishlari va birgalikda darslar rejalashtirishlari kerak. Bu metodlar pedagogning metakompetentligini rivojlantiradi va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashga imkon beradi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi fikrlar asosida metakompetentlikka mualliflik tarifimizni keltiramiz: Metakompetentlik integral xususiyatga egadir. U kasbiy faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan vaziyatlarda kasbiy-ijtimoiy-shaxsiy muammolar va kasbiy-ijtimoiy topshiriqlarni hal yeta olish qobiliyati va tayyorlik darajasi bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki universal metakompetentlikni rivojlantirish jarayonida ta'lim tizimining o'zgarishi va yangilanishi muhim rol o'ynaydi. Pedagoglarga zamonaviy o'qitish metodlarini o'rgatish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion usullarni o'rganish va o'z faoliyatida sinovdan o'tkazish muhim va zaruratga aylanadi. **Pedagogik tajriba va hamkorlik jarayoni orqali pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, metodik yondashuvlar bo'yicha hamkorlik qilishlari, tajriba va bilimlarni bir-birlariga uzatishlari muhim hisoblanadi.** Bu jarayon orqali pedagog o'zini yanada kuchliroq his qiladi va o'z faoliyatida innovatsion yechimlarni qo'llashni o'rganadi va kelajak avlodga o'rgatadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тасдиqlаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4545884>
2. Абдурауф Фитрат. Оила.-Тошкент:Маънавият, 2000й. -Б.55.
3. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... автореферат. Т.: 2007.
4. Бозорова С. Олий таълимда касбий-йўналтирилган ўқитиш технологияси. Монография. -Toshkent. 2023.
5. Габдрахманова К.Ф. Методика разработки диагностических средств оценки уровня сформированности профессиональных компетенций студентов технического вуза / К.Ф. Габдрахманова // Фундаментальные исследования. – 2015.
6. Болтунова Л.М., Емельянова И.Н. Типология оценочных средств, предназначенных для оценки компетенций. // Педагогическое образование в России. 2014. № 11.
7. Богословский В.А., Караваева Е.В., Ковтун Е.Н. [и др.]. Методические рекомендации по проектированию оценочных средств для реализации многоуровневых образовательных программ ВПО при компетентностном подходе. – М.: Изд-во МГУ, 2007
8. Гарафутдинова Г.Р. Модель формирования профессиональной выпускника вуза // Фундаментальные исследования. 2008. – № 5.
9. Ломовцева О.А., Прядко С.Н. Использование квалиметрического подхода для оценки стержневых компетенций научно-образовательных организаций// научные ведомости. Серия Экономика. Информатика. 2016, №16 (237). Выпуск 39.